



Adhamjon ROXBIBJONOV,

Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail:adhamjon@mail.ru

Toshkent davlat pedagogika universiteti professori,p.f.d B.S.Abdullayeva taqrizi asosida

INTEGRATED TECHNOLOGIES AND THEIR USE IN THE TEACHING OF CARDIOLOGY IN MEDICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

The article discusses the importance of a medical university founded by "cardiology" specializing in Information and communication technologies and pedagogical technologies. The article deals with the integration of educational technologies, information and pedagogical technologies, integration, integration of educational meanings and their auxiliary content.

Key words: Medicine of education, bolazhak shifokorlar, information technology, teacher of technology, communication, integration, integration of education, switching, animation.

ИНТЕГРИРОВАННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В ПРЕПОДАВАНИИ КАРДИОЛОГИИ В МЕДИЦИНСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация

В статье обсуждается важность медицинского вуза, основанного «кардиологией» по специальности Информационно-коммуникационные технологии и педагогические технологии. В статье интеграция образовательных технологий, информационно-педагогических технологий, интеграция, интеграция учебных смыслов и их вспомогательного содержания.

Ключевые слова: Медицина образования, болажак шифокорлар, информационные технологии, педагог технологии, коммуникация, интеграция, интеграция образования, коммутация, анимация.

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KARDIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INTEGRATSIYALASHGAN TEXNOLOGIYALAR VA ULARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada tibbiyot olyi ta'limga muassasalarida "Kardiologiya" fanini o'qitishda axborot-kommunikasiya va pedagogik texnologiyalardan foydalananishning ahamiyati muhokama qilingan. Maqolada integrasiyalashgan ta'limga texnologiyalari, axborot va pedagogik texnologiyalar, integrasiya, integrasiyalashgan ta'limga ma'nosi va ularning mazmuni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tibbiy ta'limga, bo'lajak shifokorlar, axborot texnologiya, pedagogik texnologiya, kommunikasiya, integrasiya, integrasiyalashgan ta'limga, kommutasiya, animasiyalar.

Kirish. Jahon miqyosida ilm-fan va texnologiya global rivojlanishning asosiy poydevoriga aylandi. Ikkala sub'ekt ham hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda, chunki bu yangi kashfiyotlar ilm-fan va texnologiyalar asosida paydo bo'ladi. "Kardiologiya" fani ilm-fan, texnologiya va tibbiyot fanlar dunyosida muhim ro'lb o'ynasa-da, talabalar hamda o'qituvchi tomonidan o'zlashtirishda har doim qiyinchiliklarga duch keladi. Axborot texnologiyasi yordamida "Kardiologiya" fanidagi simulyasion markazlarda "jonli" namoyish qilish imkoniyati bo'lgan bir paytda kompyuter yordamida mavzuga oid animasiya yaratib, u darsda joriy etilsa, dars samaradorligining oshishiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Demak, tibbiyot olyi ta'limga tashkilotlari "Kardiologiya" o'quv dasturidagi mavzularni an'anaviy usullarda tushuntirib, mavzular bo'yicha talabalarning o'zlashtirish darajasini oshirib bo'lmaydi. Bu muammoni hal qilish uchun tanlangan mavzu materiallarini integrasiyalashgan ta'limga texnologiyalar asosida yoritish metodikasini yaratish zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda ta'limga tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish yo'lida bir qancha amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoga. Bunday tadqiqot ishlaringin asosiy mazmuni quyidagilardan iborat :

ta'limga mazmunini xorijiy tajribalar asosida yangicha mazmunga olib kelish va ular asosida yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish;

kompyuter texnologiyalaridan foydalanih, o'quv predmetlarini o'qitish jarayonini takomillashtirish;

o'quv jarayoniga yangi avlod axborot va kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish;

o'quv jarayoniga zamona viy pedagogik, inno vasion va integrasiyon texnologiyalarni joriy etish va hokazo.

O'quv jarayonida sifatlari va kafolatlangan ta'limga berishda ta'limga usullari va vositalari alohida ahamiyatga ega. Zamон talabi darajasida o'quv jarayonini tashkil etishda integrasiya, ya'ni integrasiyalashgan texnologiyalardan foydalinish muhimdir. Integrasiya so'zi lotincha "integration" so'ziga mos kelib, o'zbek tilida tiklash, qaytadan boshlash, to'ldirish ma'nolarini ifodalaydi. Ayrim qismlar, elementlarning bog'liqliq holati, ularni qo'shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Integrasiya so'zidan fanlarning yaqinlashishi va o'zaro bog'lanish jarayonini ifodalashda ham foydalilanadi. Integrasiyalash tushunchasi muhim ilmiy terminlardan biri bo'lib, u umumlashtirish, xulosalar chiqarishda metodologik vosita hisoblanadi. Fan va texnikada ushbu metodologik vosita yordamida biror jarayon yoki hodisalar mazmuni orasidagi umumi yug'unlik modellari va algoritmlari yaratiladi. Tibbiyot olyi ta'limga muassasalarida beriladigan ta'limga mazmunitagi yug'unliklari ta'minlash muammolarini yechishta ham integrasiyalashning mohiyati alohida ahamiyatga ega. Integrasiyalash orqali o'qitiladigan o'quv predmetlarining asosiy tushunchalari umumlashtiriladi. Biror tadqiqot ob'ekti va metodologiyasiya oid ma'lumotlar o'rtasidagi aloqadorlikni o'rnatishda ham integrasiyalash tushunchasidan foydalilanadi. Integrasiyalashgan texnologiya deganda, ikki va undan ortiq texnologiyalarni birlashtirish, umumlashtirish va ular orasidagi aloqadorlikni o'rnatishdan hosil bo'lgan texnologiyalar tushuniladi. Integrasiyalashgan texnologiyalarning qo'llanilishi natijasida o'quv mashg'ulotlari masofadan turib tarmoq texnologiyalari va simulyasion markazlar imkoniyatlaridan foydalangan holda tashkil etishga olib keladi. Bu esa masofali o'qitishni tashkil etish ning asosidir. Masofali o'qitishda tarmoq texnologiyalarining asosiy vazifasi o'quv jarayonida o'qituvchi va talaba orasidagi muloqotni ta'minlashdan

iborat. O'qituvchi va talaba orasidagi doimiy muloqotsiz tashkil qilingan o'quv jarayoni ko'zlangan samarani bermaydi. Ta'limgiz tiziminining kunduzgi shaklida o'qituvchi va talaba orasidagi muloqot bir vaqt, bir joyda o'quv auditoriyasida amalga oshiriladi. Masofali o'qitishda esa bu jarayon telekommunikacion vositalar asosida kompyuterning tarmoq texnologiyalari orqali amalga oshiriladi. Yuqorida ko'rib chiqilgan integrasiyalashgan texnologiyalarning integrasiya-lashgan holatini ta'limgiz berish va o'zlashtirishning eng maqbul texnologiyasi deb qarash mumkin. Pedagogik va axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda ta'limgiz oluvchilar uchun axborot-ta'limgiz muhitini yaratib, kommunikasiya texnologiyalari vositalari asosida ta'limgiz oluvchilarga yetkazib berish jarayonlari integrasiyalashgan texnologiyalari asosiy texnologiyalarning asosiy vazifasini hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tibbiyot oliy ta'limgiz muassasalarida kardiologiya fanini o'qitishda integrasiyalashgan texnologiyalar va ulardan foydalanish ta'limgiz jarayonini samarali va interaktiv qilishga yordam beradi. Quyida ushu texnologiyalar va ulardan foydalanish usullari keltirilgan

1. Simulyatsiya texnologiyalari. Simulyatsion manekenlar va qo'llannalar: Tibbiyot talabalari kardiologik amaliyotlarni, masalan, yurak massaji yoki defibrilatsiyani, xavfsiz muhitida amaliyot qilishlari mumkin. Yurak-qon tomir tiziminining simulyatorlaridan foydalaniladi. Bemorlarning turli holatlarini takrorlash va talabalarni murakkab klinik vaziyatlarga tayyorlash o'rnatiladi.


2. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR). VR/AR o'quv dasturlari. Yurak anatomiyasi va fiziologiyasini 3D ko'rinishda o'rganish imkonini beradi, bu esa talabalarga murakkab tuzilmalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Klinik vaziyatlar va operatsiyalarni takrorlashlar kiradi. Talabalarga VR muhitida operatsiyalarni va klinik vaziyatlarini sinab ko'rishlari mumkin.

3. E-learning platformalari va onlayn kurslar. Massiv Ochiq Onlayn Kurslar (MOOCs): Dunyoning yetakchi universitetlari va ilmiy markazlari tomonidan taklif etiladigan kardiologiya bo'yicha onlayn kurslar. Interaktiv o'quv modullari: Talabalarga mustaqil o'rganish va o'z bilimlarini sinab ko'rish imkonini beruvchi interaktiv materiallar.

4. Telemeditsina va telemonitoring. Telemeditsina platformalari: Real vaqt rejimida bemorlar bilan ishslash va maslahatlarga qatnashish imkonini beradi.: Yurak holatini uzoqdan kuzatish va talabalarga real bemorlar bilan ishslash tajribasini berish.

5. Elektron sog'lijni saqlash yozuvlari (EHR). EHR tizimlari bilan ishslash: Talabalarga bemorlarning elektron sog'lijni saqlash yozuvlari bilan ishslashni o'rgatish, bu esa

Talaba integrativ kompetensiyasining elementlarini o'zarboq bog'liqligi



Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy talab darajasida o'quv jarayonini tashkil etish, ta'limgiz mazmunlarini umumlashtirish va to'ldi rishda integrasiyalashgan texnologiyalar alohida ahamiyat kasb etib, ko'zlangan maqsadga erishishni kafolatlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'limgiz tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori.
4. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.: "Fan", 2006. -264-b.
5. Amirov D.M. va boshqalar. Axborot-kommunikasiya texnologiyalari izohli lug'ati. - T., 2010. -576-b.
6. Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'lif va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnolo giyalardan foydalanish uslubiyoti. – T.: "Iste'dod", 2014.